ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

IVLIN VO SATIRIK ROMANLARIDA QORA YUMOR POETIKASI VA IJTIMOIY FOJIA TALQINI

Nayimova Gavxar Zokir qizi
Cyber university o`qituvchisi
zokirovnagavhar@gmai.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20285247

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr ingliz adabiyotining yirik vakili Ivlin Voning (Evelyn Waugh, 1903–1966) satirik romanlarida qora yumor (black humour) poetikasining o‘ziga xos ko‘rinishlari va ijtimoiy fojianing badiiy talqini masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi — Voning dastlabki satirik romanlaridan ikki namuna, “Vile Bodies” (1930) va “A Handful of Dust” (1934) asarlari misolida yozuvchining kulgi va fojia o‘rtasidagi dialektik munosabatni qanday badiiy vositalar orqali amalga oshirganini aniqlashdir. Tadqiqotda germenevtik tahlil, qiyosiy-tarixiy metod hamda stilistik tahlil usullari qo‘llanilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda birinchi marta o‘zbek filologiyasida Ivlin Voning qora yumor texnikasi o‘zbek adabiyotshunosligida shakllangan satirik pafos nazariyasi (D. Quronov, K. Qurambayev) bilan qiyosiy tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Voning satirasida kulgi tuzatuvchi (korrektiv) vazifasini yo‘qotib, ijtimoiy-ma’naviy parokandalikni tashhis etuvchi metafizik diagnostik vositaga aylanganligi, bu esa an’anaviy satiradan tubdan farq qilishini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: qora yumor, satirik poetika, Ivlin Vo, ijtimoiy fojia, ironik inversiya, ma’naviy inqiroz, ingliz adabiyoti.

Abstract. This article examines the poetics of black humour and the artistic interpretation of social tragedy in the satirical novels of Evelyn Waugh (1903–1966), a major figure of twentieth-century English literature. The purpose of the study is to identify the specific artistic devices through which Waugh constructs the dialectical relationship between comedy and tragedy, using Vile Bodies (1930) and A Handful of Dust (1934) as case studies. The research employs hermeneutic analysis, comparative-historical methodology, and stylistic analysis. The scientific novelty consists in the first comparative examination, within Uzbek philology, of Waugh’s black humour technique alongside the theory of satirical pathos developed in the Uzbek literary-theoretical tradition (D. Quronov, K. Qurambayev). The findings demonstrate that in Waugh’s satire, laughter loses its corrective function and becomes a metaphysical diagnostic instrument for registering socio-spiritual disintegration, representing a fundamental departure from traditional satirical practice.
Keywords: black humour, satirical poetics, Evelyn Waugh, social tragedy, ironic inversion, moral crisis, English literature.

KIRISH

XX asr ingliz adabiyotining satirik an’anasida Ivlin Artur Sent-Jon Vo (Evelyn Arthur St John Waugh, 1903–1966) alohida o‘rin tutadi. U birinchi jahon urushidan keyingi Britaniya jamiyatining ma’naviy inqirozini badiiy jihatdan eng o‘tkir tarzda aks ettirgan yozuvchilardan biri sifatida tanilgan. Biroq Voning satirasi Jonatan Svift yoki Genri Filding an’anasida shakllangan “tuzatuvchi satira” (corrective satire) paradigmasiga to‘liq mos kelmaydi. Uning asarlarida kulgi axloqiy normani tiklash maqsadida emas, balki bu normaning o‘zining yo‘qolganligini qayd etish uchun ishlatiladi. Xuddi shu xususiyat Voning satirasini an’anaviy hajvdan farqlaydi va uni “qora yumor” (black humour, humour noir) kategoriyasiga joylashtiradi [1].

Qora yumor tushunchasi dastlab Andre Bretonning 1940-yilda nashr etilgan “Anthologie de l’humour noir” to‘plamida nazariy shakl olgan bo‘lib, keyinchalik Metyu Uinston (1972) va Max Shulsning (1973) ishlari orqali ingliz adabiyotshunosligiga kirib kelgan [2]. Bu tushunchaning asosiy xususiyati shundaki, unda komik effekt dahshatli, fojiaviy yoki absurd vaziyatdan kelib chiqadi, ammo an’anaviy satiradagi kabi tuzatuvchi muqobil taklif qilinmaydi. Liza Kolletta (Lisa Colletta) o‘zining fundamental tadqiqotida ushbu hodisani “modernistik qora yumor” deb atab, uning asosiy belgilarini

quyidagicha ta’riflagan: “Grotesk va absurd o‘zi “axloqiy standart”ga aylanadi” [3, 5-b.]. Bu ta’rif Voning badiiy dunyosini tushunishda muhim nazariy kalit hisoblanadi.

O‘zbek filologiyasida Ivlin Vo ijodiga oid tadqiqotlar hali boshlang‘ich bosqichda. To‘rayeva B.B. va Murodova M.I.ning 2024-yilda “Komparativistika” jurnalida chop etilgan maqolasida Vo va Abdulla Qahhor ijodidagi avtobiografik hamda ijtimoiy motivlar qiyosiy tahlil qilingan [4]. Biroq Voning satirik poetikasidagi qora yumor texnikasini o‘zbek adabiyotshunosligida shakllangan nazariy kategoriyalar — xususan, D. Quronov tomonidan ishlab chiqilgan “satirik pafos” va K. Qurambayev ta’riflagan “tarbiyaviy ahamiyat” tushunchalari — bilan qiyosiy o‘rganish hali amalga oshirilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda uchta bir-birini to‘ldiradigan ilmiy metod qo‘llanilgan. Birinchisi — germenevtik tahlil bo‘lib, u orqali Voning “Vile Bodies” (1930) va “A Handful of Dust” (1934) romanlaridagi ruhiy-ma’naviy qatlamlar, yashirin ramziy ma’nolar va muallif intentsiyasi (niyati) ochiladi. Germenevtik yondashuv matnning sirt qatlamidan (satirik syujet) ichki qatlamiga (metafizik diagnostika) o‘tish imkonini beradi.

Ikkinchi metod — qiyosiy-tarixiy tahlil bo‘lib, u ikki yo‘nalishda qo‘llaniladi: (a) Voning qora yumorini XVIII–XIX asr ingliz satirik an’anasi (Svift, Tekkerey) bilan qiyoslash va (b) o‘zbek adabiyotshunosligida ishlab chiqilgan satirik pafos nazariyasini Angliya Modernist traditsiyasi bilan solishtirish. Bu metod Voning satirik poetikasining tarixiy evolyutsiyasini aniqlash imkonini beradi.

Uchinchi metod — stilistik tahlil bo‘lib, uning yordamida Voning satirik diskursidagi til vositalari: ironiya, litota, giperbolizatsiya, affektsiz (tonalsiz) hikoyachilik, onomastik satirizatsiya (ismlar orqali satiralash) va dialogik absurdizatsiya kabi badiiy usullar tahlil qilinadi. Pol Simpson (Paul Simpson) tomonidan ishlab chiqilgan “prime/dialectic” modeli satirik matn strukturasini ochishda asosiy nazariy asbob sifatida ishlatiladi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

1. “Vile Bodies” romanida bayram va halokat dialektikasi

“Vile Bodies” (1930) romani 1920-yillar Londonining “Bright Young Things” (Yorqin yosh avlod) deb atalgan bohema muhitini tasvirlaydi. Roman qahramoni Adam Fenvik-Sayms yosh yozuvchi bo‘lib, uning bosh maqsadi — sevgilisi Nina Blountga uylanish uchun pul topish. Biroq roman syujetining harakatlantiruvchi kuchi bu romantik intilish emas, balki qayta-qayta takrorlanadigan, hech qachon tugamaydigan va hech qanday mazmuniy yakunga yetmaydigan bayram (party) tsiklidir. Vo bu bayramlarni kulgi ob’yekti sifatida emas, balki ma’naviy bo‘shliqning tashqi ko‘rinishi sifatida tasvirlaydi.

Romandagи qora yumorning eng o‘tkir namunasи Saymon Balkern epizodida namoyon bo‘ladi. Balkern — gossip columnisti, ya’ni aloqalar muxbiri bo‘lib, u ijtimoiy hayotni oshkoralov orqali tirikchilik qiladi. Mehmonxonadan chiqarilganidan so‘ng u o‘zini o‘ldiradi. Biroq bu fojia romandar narrativ registrda hech qanday o‘zgarish keltirib chiqarmaydi: hikoyachi Balkernning o‘limini xuddi bayram tafsilotlari kabi affektsiz ohangda qayd etadi, atrofdagi personajlar esa keyingi ziyofatga o‘tishadi. Kollettaning ta’biricha, bu “o‘limdan o‘rganishdan bosh tortish” [3, 86-b.] modernistik qora yumorning eng muhim tarkibiy belgisidir.

Romanninng ikkinchi fojiaviy kulminatsiyasi — Agata Rankiblning avtomobil poygasi paytidagi halokati — shu kabi stilistik printsip asosida qurilgan. Agata og‘ir jarohat olgandan so‘ng kasalxonada yotib, esankiragan holda bayram haqida alahsiraydi: “Sharlarni ko‘proq keltiring! Sharlarni!” Bu sahna tragikomik absurdning namunasidir: personaj o‘lim yoqasida ham ijtimoiy bayramning diskursidan chiqolmaydi, chunki bu diskursdan tashqari uning ruhiy dunyosida boshqa hech narsa yo‘q. O‘zbek adabiyotshunosligidagi kategoriyalar bilan aytsak, bu yerda Quronov ta’riflagan “satirik pafos — to‘la inkor” [6, 207-b.] tamoyili amalga oshmoqda, biroq an’anaviy satiradan farqli o‘laroq, inkor qilinayotgan holatga muqobil ideal taklif qilinmaydi.

Roman bir daryo sahifasi bilan yakunlanadi: Adam o‘zini “tarixdagi eng katta jang maydonida” topadi. Bu final bayram va halokat o‘rtasidagi aloqani ochiq ravishda ko‘rsatadi — “Yorqin yosh

avlod”ning mazmunsi ziyofatlari oxir-oqibat harbiy halokatga olib boradi. Vo bu aloqani hech qanday moralizatorlik yoki didaktik izoh bilan ta’minlamaydi; u faqat diagnostika qiladi, tuzatuvchi retsept yozmaydi.

2. “A Handful of Dust” romanida ironik inversiya va sivilizatsiya simulakri

“A Handful of Dust” (1934) romanining nomi T.S. Eliotning “The Waste Land” (1922) she’ridan olingan: “Men sizga bir hovuch tuproqda qo‘rquv ko‘rsataman” (I will show you fear in a handful of dust, 30-satr). Bu intertekstual bog‘lanish tasodifiy emas — roman Eliotning “ma’naviy cho‘l” (wasteland) diagnostikasini nasr shaklida amalga oshiradi [7]. Romanning bosh qahramoni Toni Last — ingliz jentri oilasining so‘nggi vakili bo‘lib, u Xetton Abbi (Hetton Abbey) nomli Gotik Uygonish uslubidagi qo‘rg‘oniga butun hayotini bag‘ishlagan. Xettonning xonalari Artur qiroli afsonalari qahramonlari nomida atalgan — Morgan le Fey, Galahad, Izeult — va bu onomastik tafsilot romanning markaziy ramziy mexanizmidir.

Xetton Abbi ramziy jihatdan ikki darajali simulakrdir: u o‘rta asr idealini qayta tiklamoqchi bo‘lgan Viktoriya davri qurilishi, ya’ni asl nusxasining nusxasidir. Toni bu simulakrga samimiy sadoqat bilan munosabatda bo‘ladi — bu sadoqatni hikoyachi bir vaqtning o‘zida harakatli va absurd sifatida qayd etadi [8]. Jeffri Xitning (Jeffrey Heath) ta’biricha, Toni “allaqachon ijtimoiy tartib sifatida mavjud bo‘lmagan jamoa tartibiga shaxsiy sadoqatini saqlab qolgan odam”dir [8, 142-b.]. Xuddi shu xususiyat Tonini fojiaviy qahramon qiladi: u xiyonatni anglash uchun zarur bo‘lgan kognitiv doiradan mahrum.

Romanninng axloqiy markazi Brenda Last va uning ishqiy aloqasini qamrab oluvchi metropolitan muhitdir. Brenda Toni bilan nikohdan zerikib, Jon Biver (John Beaver) nomli parazit tarzda yashovchi shaharlik yigit bilan aloqaga kirishadi. Bivening yagona ijtimoiy “qobiliyati” — uning telefoni mavjudligidir. Romandagi eng dahshatli sahna Brendaga “Jon o‘ldi” degan xabar yetkazilgan paytda yuz beradi. Brenda dastlab bu o‘z o‘g‘li Jon Endryu emas, balki sevgilisi Jon Biver deb o‘ylaydi va “Xudoga shukr!” deb javob beradi. Bu so‘zlar bola o‘limi tasodifiy hodisa, sevgili yo‘qotish esa haqiqiy fojia degan axloqiy ierarxiyani to‘ntaradi. Vo bu sahnani hech qanday mualliflik izohi yoki axloqiy baholash bilan ta’minlamaydi — hikoyachi xuddi oldingi sahifalar kabi affektsiz ohangda gapiradi. Kitobxon axloqiy hukmni o‘zi chiqarishi shart [3].

Romanninng final epizodi Toni Lastning Braziliya o‘rmonlarida Mr Todd (Mr Todd, “tod” nemischa “o‘lim” degan ma’noni ham bildiradi) nomli yarim aqldan ozgan mestizo tomonidan asirga olinishidir. Todd Tonini butun umr Charlz Dikkens romanlarini baland ovozda o‘qishga majbur qiladi — bir roman tugagach, yana boshidan boshlanadi. Bu final ko‘p qatlamli ironik inversiyani amalga oshiradi. Birinchidan, Tonining Viktoriya madaniyatiga bo‘lgan ixtiyoriy muhabbati endi ixtiyorsiz majburiy ijroga aylanadi. Ikkinchidan, tsivilizatsiyani yovvoyi o‘lkaga olib boruvchi yevropa kolonializmi toposi teskari aylantiriladi: bu yerda “yovvoyi” yevropalikni tsivilizatsiyani ado etishga majbur qiladi. Uchinchidan, Tonining ahvoli dunyoviy la’natni ifodalaydi — ma’nosiz takrorlanishning vaqt cheksizligi, katolik ilohiyotidagi najot tuzilmasidan mahrum [8; 9].

3. Qahramonlar absurdligi va tildagi ifodasi

Voning satirik usulining o‘ziga xos xususiyati — qahramonlar absurdligining bevosita muallif izohi orqali emas, balki til vositalari, xususan dialog va onomastika orqali ochilishidir. McIntyre o‘zining dissertatsiyasida Voning satirik texnikasini “burlesk” va “ironiya” o‘rtasida tebranuvchi ikki qutbli tizim sifatida ta’riflagan [10]. Darhaqiqat, Voning dastlabki romanlarida personajlar o‘zlarining absurdliklarini o‘zlari anglamaydi — bu anglashni hikoyachi emas, kitobxon amalga oshiradi.

Onomastik satirizatsiya Voning eng samarali vositalaridan biridir. “Vile Bodies”da missis Melrouz Eyp (Mrs Melrose Ape) — amerikalik evangelistka bo‘lib, uning ismi “maymun” (ape) so‘zini o‘z ichiga oladi, bu orqali diniy va’z aytishning maymunlashtirilganligiga ishora qilinadi. Polly Kokpers (Polly Cockpurse) ismi esa bevosita axloqsizlikka ishora. “A Handful of Dust”da esa missis Biver (Mrs Beaver) o‘z o‘g‘lini “bozorga chiqaruvchi” ona bo‘lib, uning ismi “qunduz” ma’nosini anglatadi — hayvon bo‘lib qurilish (dam qurish) bilan shug‘ullanadigan jonzot, xuddi missis Biver qo‘rg‘onlarni “xrom va oq charm” uslubida qayta bezash biznesi bilan shug‘ullanganidek.

Dialogik absurdizatsiya esa qahramonlarning bir-biri bilan gaplashganda aslida hech narsa aytmasligida namoyon bo‘ladi. “Vile Bodies”dagi telefon muloqotlari bungga aniq misoldir: Adam va Nina bir-birlarini qayta-qayta chaqirib, turmush qurish–ajralish masalasini savdo bitimlari kabi

muhokama qiladilar. Bu dialoglar Pol Simpsonning prime/dialectic modeli nuqtai nazaridan tahlil qilinganda aniq tuzilishga ega: dastlabki nutq akti (prime) — nikoh va'dasi — darhol keyingi nutq akti (dialectic) tomonidan bekor qilinadi, bu esa o'quvchini "sevgi" va "majburiyat" so'zlarining bu kontekstda bo'sh qobiq ekanligini anglashga olib keladi [5].

O'zbek adabiyotshunosligining terminologik apparati bu hodisani aniq tavsiflash imkonini beradi. Qurambayev "Adabiyot nazariyasi" ma'ruzalarida hajviy-satirik obrazlarni grotesk, mubolog'a va majoziy obrazlar bilan birga ko'rib chiqadi va ularning tarbiyaviy vazifasiga alohida urg'u beradi [11]. Ammo Voning satirik obrazlari an'anaviy o'zbek nazariyasidagi "tarbiyaviy ahamiyat" mezoniga javob bermaydi: ular na ibrat ko'rsatadi, na tuzatuvchi alternativa taklif qiladi. Bu tafovut ahamiyatsiz emas — u Voning satirasining janr tabiatini ("anti-satira") aniq belgilash imkonini beradi va o'zbek filologiyasida yangi terminologik kategoriyalarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi yakuniy xulosalarni shakllantirish mumkin. Birinchidan, Ivlin Voning "Vile Bodies" va "A Handful of Dust" romanlaridagi satira an'anaviy ma'noda "kulgi orqali tuzatish" vazifasini bajarmaydi. Voning satirik apparati — ironiya, grotesk, affektsiz hikoyachilik, onomastik satirizatsiya — to'liq kuchda ishlaydi, ammo bu apparat yo'naltirilgan ijtimoiy tartib allaqachon ichidan emirilgan, shuning uchun satiraning tuzatuvchi ufqi qaytarib bo'lmas darajada olib tashlangan.

Ikkinchidan, Voning qora yumori Zigmund Freyd ta'riflagan "dar og'och yumori" (gallows humour) mexanizmiga asoslanadi: fojiaviy mazmun va affektsiz ohang o'rtasidagi intonatsion nomuvofiqlik kitobxonda bir vaqtning o'zida kulgu va dahshat hissini uyg'otadi. Bu "ikki yoqlama effekt" Voning satirik usulining texnik imzosidir va uni oddiy satiradan yoki oddiy fojia janridan farqlaydi.

Uchinchidan, o'zbek filologiyasining analitik apparati — xususan, Quronov ishlab chiqqan "satirik pafos = to'la inkor" formulasi va Qurambayev ta'kidlagan "tarbiyaviy ahamiyat" mezoni — Voning satirasini tahlil qilishda kuchli differentsial vosita sifatida ishlaydi. Aynan o'zbek nazariy an'anasining tuzatuvchi satiraga bo'lgan talabi fonida Voning anti-satirik usulining o'ziga xosligi aniq namoyon bo'ladi. Bu fakt o'zbek va ingliz adabiy nazariyalarining qiyosiy tadqiqi uchun yangi perspektivalar ochadi.

Nihoyat, Voning satirasi shunchaki kulgi emas — bu XX asr Britaniya jamiyatining ma'naviy parokandaligini fosh etuvchi diagnostik san'at shaklidir. Uning romanlaridagi kulgi davo emas, tashxisdir; satira esa tuzatish emas, qayd etishdir. Xuddi shu xususiyat Voning dastlabki romanlarini urushdan keyingi yetuk asari "Sword of Honour" trilogiyasiga (1952–1961) tayyorlovchi bosqich sifatida joylaydi va uning butun ijodiy evolyutsiyasini yagona mantiqiy zanjirga bog'laydi.

ADABIYOTLAR

1. Colletta L. Dark Humor and Social Satire in the Modern British Novel / L. Colletta. New York: Palgrave Macmillan, 2003. 186 p.
2. Winston M. Humour noir and Black Humor / M. Winston // Veins of Humor. Cambridge: Harvard University Press, 1972. P. 269–284.
3. Colletta L. Dark Humor and Social Satire in the Modern British Novel / L. Colletta. — New York: Palgrave Macmillan, 2003. P. 5, 86.
4. To'rayeva B.B. Ivlin Vo va Abdulla Qahhor ijodida avtobiografik hamda ijtimoiy motivlar tadqiqi / B.B. To'rayeva, M.I. Murodova // Komparativistika. 2024. № 1. B. 56–66.
5. Simpson P. On the Discourse of Satire: Towards a Stylistic Model of Satirical Humour / P. Simpson. Amsterdam: John Benjamins, 2003. 242 p.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish / D. Quronov. Toshkent: Akademnashr, 2018. B. 207.
7. McCartney G. Confused Roaring: Evelyn Waugh and the Modernist Tradition / G. McCartney. Bloomington: Indiana University Press, 1987. 184 p.
8. Heath J.M. The Picturesque Prison: Evelyn Waugh and His Writing / J.M. Heath. Montreal: McGill-Queen's University Press, 1982. P. 142.

9. DeCoste D.M. The Vocation of Evelyn Waugh: Faith and Art in the Post-War Fiction / D.M. DeCoste. Farnham: Ashgate, 2015. 198 p.
10. McIntyre J.T. Satirical Methods in Eight Novels of Evelyn Waugh: magistrlik dissertatsiyasi / J.T. McIntyre. Loyola University Chicago, (1947) 116 p.
11. Qurambayev K. Adabiyot nazariyasi: ma'ruzalar matni / K. Qurambayev. Nukus: Ajiniyoz NDPI, 2012, 47 b.
12. Mikhal'skaya N.P. Istoriya angliyskoy literaturi / N.P. Mikhal'skaya. 2-ye izd. M.: Akademiya, 2007. B. 417.
13. Milthorpe, N. Evelyn Waugh's Satire: Texts and Contexts / N. Milthorpe. Madison: Fairleigh Dickinson University Press, 2016. 220 p.
14. Huang, B.H. Generative AI in English Language Education / B.H. Huang, X. Yan // TESOL Quarterly. 2025. Vol. 59. P. S330–S344. URL: https://doi.org/10.1002/tesq.70042
15. Waugh, E. A Handful of Dust / E. Waugh. London: Penguin Modern Classics, 2000. 224 p. (Asl nashr: 1934).